O‘ZGA TILLI GURUHLARDA O‘ZBEK TILI DARSIDA MATN TANLASHNING GRAMMATIK VA SEMANTIK JIHATLARI

Qabil Abdurasul o‘g‘li Urdishev
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

Annotatsiya: Maqolada o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili darsida matn tanlashda grammatik va semantik jihatlarning ahamiyati ta’kidlanadi. O‘quvchilarga matnni samarali tushunishga yordam berish uchun, matnlarning grammatik va semantik tuzilmalari, leksik boyligi va orfoepik me’yorlari to‘g‘risida ma’lumot berish zarurligi ko‘rsatiladi. Matn tanlashda grammatik jihatlarning o‘rganilishi o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishi uchun juda muhimdir. O‘qituvchilar o‘quvchilarga grammatikani amaliy mashg‘ulotlar orqali tushuntirishlari kerak, bu esa ularning tilni tushunish va ifoda etish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, maqolada grammatika va semantikaning til o‘rganishda qanday muhim o‘rin tutishi va tilshunoslarning turli yondashuvlari haqida so‘z boradi. Grammatika va semantikaning integratsiyasi o‘quvchilarga matnni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Mavzu, tilni o‘rgatishda o‘quvchilarga muvofiq va samarali matnlarni tanlashning ahamiyatiga e’tibor qaratadi. O‘qituvchilar nafaqat grammatik qoidalarga, balki matnning umumiy mazmuni va tuzilmasiga ham alohida e’tibor berishlari kerak, chunki bu o‘quvchilarni nutqni tushunish va o‘z ifodalarini shakllantirishda yordam beradi. Maqolada matnlarning grammatik tuzilmalari, jumlalar orasidagi bog‘lanishlar, sintaktik murakkabliklar va leksik ma’no yoritilib, til o‘rganishda qo‘shiqlar va she’riy matnlarning ahamiyati ham ta’kidlanadi. Grammatikaning pedagogik yondashuvlari va o‘quvchilarning matnni to‘g‘ri tushunishlari uchun qanday metodlar qo‘llanilishi kerakligi haqida batafsil fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: tinglash, grammatik jihatlar, semantik jihatlar, matn tanlash, nutqning idrok qilinishi, o‘qitish metodikasi

GRAMMATICAL AND SEMANTIC ASPECTS OF TEXT SELECTION IN UZBEKISTAN LANGUAGE LESSONS IN NON-SPECIAL GROUPS

Qabil Abdurasul oglu Urdishev
UzMMSI named after Yunus Rajabi

Abstract: The article emphasizes the importance of grammatical and semantic aspects in selecting texts in Uzbek language lessons in foreign language groups. In order to help students effectively understand the text, it is necessary to provide information about the grammatical and semantic structures, lexical richness and

(cc) BY

orthoepic norms of the texts. Studying grammatical aspects in text selection is very important for developing students' speaking skills. Teachers should explain grammar to students through practical exercises that will help them improve their ability to understand and express their thoughts. The article also discusses the important role of grammar and semantics in language learning, as well as various approaches used by linguists. The integration of grammar and semantics helps students understand the text more deeply. The topic is devoted to the importance of choosing student-appropriate and effective texts in language teaching. Teachers should pay special attention not only to grammar rules, but also to the overall content and structure of the text, as this will help students understand speech and form their own statements. The article examines the grammatical structures of texts, the relationships between sentences, syntactic complexities and lexical meaning, and highlights the importance of songs and poetry in language learning. Detailed information is provided on pedagogical approaches to grammar and what methods should be used to ensure that students understand the text correctly.

Keywords: listening, grammatical aspects, semantic aspects, text selection, speech comprehension, teaching methodology

Tinglash - bu aloqa shakli va faol jarayon hisoblanadi. Tinglovchi tinglaganda javob berishdan oldin eshitgan so‘zlarning ma’nosini tushunish kerak. Eshitib tushunish - nutqga ma’no berish bo‘lganligi sababli asosiy e’tibor shaklga emas, balki mazmunga qaratiladi. O‘quvchilar nima ifoda etilayotganini aniqlay olish uchun ular taklif etilayotgan ma’lumotlardan faol ravishda tanlab olishadi va izohlashadi. O‘quvchilar nutqni idrok qilishda tilning grammatikasi, tilning lug‘at boyligi va orfoepik me’yorlar to‘g‘risida ma’lumot oladi va ulardan yangi ma’no xususiyatlarini ishlab chiqaradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga matn tanlashda matnning grammatik va semantik jihatlarini inobatga olib, ular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni taqdim etsa, samarali natijaga erishish mumkin. O‘qituvchi matn tanlashda matnning tarkibiga va uni o‘quvchilarga yetkazib bera olish ahamiyati mavjud bo‘lgan matnlarni tanlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tilshunos olimlar tilning grammatik shaklini tavsiflashda tilning fonologik, morfologik, sintaktik bo‘limlari bilan uzviy aloqadorligini ta’kidlashgan. Grammatika bu tilning tuzilishi yoki tizimning qanday ishlatilishi haqidagi bo‘limdir. Nutqning yaratilishi tovushlardan boshlanadi. Tovushlar so‘zlardan, so‘zlar esa ibora va jumlalarni tashkil qiladi. Vaqt va zamonlar o‘tishi bilan tilning lug‘at tarkibi ham o‘zgarib boradi. Shu nuqtai nazardan grammatika ma’lum bir zamon va davrdagi tilning aksi hisoblanadi. Grammatika-bu o‘quvchilarning nutqini aqliy jihatdan shakllantirishda yordam beradi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda o‘quvchilarga eshittiriladigan matn muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

(cc) BY

Xorijlik tilshunoslarning ta’kidlashicha, avvallari tizimli sohalarda olib boriladigan ishlarda grammatikani o‘rgatish kerakmi degan bir qancha munozaralar keltirib chiqargan. Lekin ongning grammatik ta’limga ehtiyoji sababli, aniq grammatik tayyorgarlikni talab qildi. Biz birinchi bobda yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga deb nomlanuvchi yondashuv haqida ma’lumot keltirib o‘tgan edik. Ya’ni o‘quvchi matnni tushunishda “yuqoridan pastga” qayta ishlashda butun matndan to grammatik elementlargacha qayta tahlil qiladi. Masalan, o‘qituvchi ma’lum bir grammatik elementni o‘quvchiga tushuntirmoqchi bo‘lsa, ushbu element matn takibiga kiritiladi va o‘quvchilar matnga emas balki, matndan jumlaga qarab ishlashadi. Tilshunoslikning ushbu pedagogik yondashuvi o‘quvchilarga nutqning kontekstdagi o‘rni, uning qanday qanday maqsadlarda yaratilgani, qanday kelib chiqqaniga qarab farqlanishini ko‘rsatishga o‘rgatadi. Bu kabi pedagogik yondashuvlar savodxonlikni yaxshi rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi.

Wilkins shartli o‘quv dasturi va grammatika o‘quv dasturi o‘quvchining grammatika tizimini to‘g‘ri o‘rganishini ta’minlashga ko‘maklashishi kerak degan fikrni aytadi. Swain ushbu bayonotga javoban mazmunli kontekstlar orqali tilni bilish ko‘pgina o‘quvchilar uchun murakkab ishlaydigan grammatik bilimlarni rivojlantirish uchun yetarli emasligini ko‘rsadi. Bunday bilimlar o‘quvchi uchun juda muhimdir, chunki o‘quvchi o‘zining assotsiyatsiyasini ifoda etish qobiliyati grammatik jihatdan tushunish imkoniyati bilan cheklangan.

Ruterfordning fikricha, tilni o‘qitishning kommunikativ yondashuvlari rivojlanganligi sababli, tarkibiy elementlarni tanlash ko‘pincha semantik va funksional elementlarni oldindan tanlash bilan cheklanadi. Tilshunoslar o‘quvchilarga grammatikani o‘qitish va uning vazifalari haqida bir qancha izlanishlar olib borishgan. Xorijlik tilshunos olim McKayning ta’kidlashicha, ko‘pgina grammatik qoida va tushunchalarga ega bo‘lgan o‘quvchilar til haqida ko‘p bilimlarga ega bo‘lishi mumkin, ammo ular bu qoidalardan kommunikativ maqsadlarda foydalanishlari shart emas degan fikrni ilgari surgan. Bundan tashqari o‘quvchi grammatik bilimga ega bo‘lsa ham, uni sinfdan tashqaridagi muloqotda to‘g‘ri foydalana olmasligi mumkin. Lekin grammatikani o‘qitish o‘quvchilarga tildagi nutqdan to‘g‘ri va mos ravishda foydalanish imkoniyatini berishini ham aytib o‘tgan[1].

Grammatikada nutqdan foydalangan holda biror bir narsa, predmet yoki hodisa to‘g‘risida qanday, qachon va qayerda sodir bo‘lishi haqida tasvirlashga yordam beradi. Grammatika biz ifoda etmoqchi bo‘lgan so‘zlarni bir-biriga ulagan tarzda tinglovchiga aniq tarzda yetkazib beradi.Grammatika -bu til qoidalarini o‘rgatib, bu qoidalarni bilish o‘quvchiga so‘zlar zanjirini yaratish imkoniyatini beradi. Grammatikaning maqsadi faqat so‘zlarni bir-biriga bog‘labgina ham qolmasdan,

[1] Nazarova S. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.(O‘zbekiston xalq ta’limi vazirligi talabalar uchun qo ‘llanma sifatida tavsiya etgan). – Toshkent: O‘qituvchi, 1992– 215 b.

(cc) BY

so‘zlarning leksik ma’nolari bilan ham aloqadordir. So‘zlarni turkumlarga ajratishda leksik ma’nosi ustiga qo‘yilgan umumiy grammatik ma’no asosiy tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Grammatikada o‘quvchilar fikr yoki ehtiyojlar uyg‘onganda, boshqa bir o‘quvchiga bildirish uchun uni qayta yaratadilar. Larsen Freemanning aytishicha “Til aslida obyekt sifatida mavjud emas, lekin biz uni barcha jabhalarda ishlatishimiz mumkin” [2]

Grammatik jihatdan mukammal bo‘lgan matnlar o‘quvchilarning bilimiga va ularning matnni samarali tarzda tushunishga katta yordam beradi. Grammatik jihatdan tuzilgan dasturlarda o‘qituvchilar o‘quvchilarga garammatikani o‘qitish va xatolarni ustida ishlash vazifasi topshirildi. Bu vazifa o‘qituvchilarning amaliyotda garammatik qoidalarni qay yo‘sinda o‘quvchilarga yetkazib berishlari katta ahamiyatga ega.

Grammatika bu qoidalar tizimi hisoblanib, bu qoidalarni bilish o‘quvchiga ko‘p miqdorda mazmunli jumlalarni yaratishga imkon beradi. Bundan kelib chiqadiki, grammatikani o‘qitish o‘quvchilarga cheksiz lingvistik ijod uchun vositalarni taklif qiladi. Til tashqi tomondan katta shaklga ega bo‘lib, o‘quvchi uchun qiyin vazifa hisoblanishi mumkin. Grammatika aniq cheklangan qoidalar to‘plamidan iborat bo‘lganligi uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham, til o‘rganish vazifasini aniqligini kamaytirishga yordam beradi. Tilni tartibga solib, uni aniq toifalarga ajratish grammatikani o‘zlashtirishda yordam beradi.

Grammatikani ongli jihatdan yondashganda albatta qoidalarga murojaat qilinadi va misollar bilan mustahkamlanadi. Yuqori sinfdagi o‘quvchilarning aql-zakovati nutqni idrok qilishda kognitiv jarayonlarni rolini anglay oladi. Ruterford va Sharvud-Smitning ta’kidlashicha grammatikani yaxshi o‘zlashtirish ongning ongli ravishda o‘sib borish tushunchasiga mos keladi. Shuningdek Ruterford ko‘plab qoidalarning murakkabligi va ular o‘rtasidagi munosabatlar tufayli grammatik qoidalar o‘quvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish orqali yetkazilishi mumkin degan fikrni rad etadi [3]

O‘quvchilarda nutq unsurlarini yaxshi o‘zlashtirishlari uchun nafaqat alohida jumlalarni, balki to‘liq matnlarni tushunishlari va yarata olishlari kerak bo‘ladi. Nutq shakllari konteksning mazmuniga qarab joylashtirilgandan keyingina to‘liq tushunarli bo‘ladi. Darsliklardagi matnlar grammatikaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish va namoyon qilishni osonlashtirish uchun maxsus ishlab chiqiladi. Matnlarda uchraydigan notanish so‘zlar va sintaktik murakkablik o‘quvchining matnlarga tushuna olmasligiga sabab bo‘ladi. Xorijlik mutaxassislar o‘quvchilar uchun matn tanlaganga ular uchun har tomonlama qulay va tushunarli mazmunga ega bo‘lgan matn tanlashni to‘g‘ri deb bilgan holda harakat qilganlar. Ya’ni asl matnnning shaklida biroz

[2] Kadagidze L. Different types of Listening Materials, IBSU International Refereed Multi-diciplinary Scientific Journal, №1, 2006, p 148-154.
[3] Nunan D. (2002) “Listening in language Learning”. In “Methodology in Language Teaching” Eds. Jack C.Richards,Willy A.Renandya, Cambridge university press 2002, p.432.

(cc) BY

tushunarsiz elementlar yoki murakkab sintaktik birliklar mavjud ekanligini payqashsa, o‘zaro “kelishuv pozitsiyasini” yo‘lga qo‘ygan holda, stimul matnning mazmunini saqlab qolib, uni soddalashtiradilar. Matndan foydalanishning ham o‘z afzalliklari bo‘ladi. Bu orqali o‘quvchilarga matnlardagi notanish grammatik elementlarning ma’nosini bilib olishga imkon beriladi. Agar matnlar o‘quvchining o‘zlaridan kelib chiqqan holda tanlansa, ular uchun matn yanada qiziqarli va til xususiyatlarini tushunishlari osonroq kechishi mumkin. Grammatik elementlarni o‘rgatishda hikoyalardan ham foydalansa bo‘ladi, chunki hikoya orqali grammatik birliklarni aniqlash va tasvirlash jarayonlarini o‘rgatish mumkin. Bunda induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali fikr-mulohazalar yuritiladi. Undan tashqari hikoya orqali grammatikani o‘qitish usuli ko‘p qirrali usullardan biri bo‘lib, uni o‘rganib chiqqandan so‘ng grammatikani o‘qitish uchun qulay vositaga aylanishi mumkin. Bundan tashqari qo‘shiq matnini o‘rganishda ham o‘quvchilarda grammatik birliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Qo‘shiqlar bu nutqda oson ishlatilishi mumkin bo‘lgan manbalardan biridir. Shuningdek, qo‘shiqlarning so‘zlari orqali talaffuz, ritm kabi turli xil elementlarni ham o‘rganish mumkin.Bu vaziyatda aynan eshitib tushunish jarayoni yanada rivojlanadi.Sinfda qo‘shiq matnlaridan foydalanishning turli usullari mavjud. Bunda ham o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishlari, yoshi va o‘rganilishi kerak bo‘lgan grammatik ko‘rsatkich muhim rol o‘ynaydi. Qo‘shiqlarni tinglashdan oldin o‘quvchilar qaysi grammatik vositalarni o‘rganish kerakligi lozim bo‘ladi. Qo‘shiqni tinglash bosqichida har xil topshiriqlardan foydalanish mumkin. Masalan: haqiqiy yoki yolg‘on ma’lumotlar, qatorlarning ketma-ketligini toping, so‘zlarning ma’nodosh yoki zid ma’nosini toping kabi. Lekin bundan tashqari strlar orasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish keng tarqalgan usul hisoblanib, bu bo‘shliqlar orqali so‘zlar, grammatik ko‘rsatkichlar aniq ajralib turadi.

She’riy matnlar ham qo‘shiqlar singari grammatik ko‘rsatkichlarni o‘qitilishida muhim rol o‘ynaydi.She’riy matnlar tez-tez takrorlanib, qofiyalanib kelganligi uchun ham ma’lum bir grammatik ko‘rsatkichlarni amalda qo‘llash uchun samarali vosita vazifasini bajaradi. O‘quvchilar she’rning syujetini o‘rganib chiqishgandan so‘ng (o‘qish yoki eshitish orqali) uning ma’nosi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Har bir o‘quvchi she’rning ma’nosi haqida o‘z fikr-mulohazasini bildirmog‘i kerak bo‘ladi. Bu tarzdagi grammatik mashqlar tilning to‘rtta ko‘nikmasini birlashtirgan holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarova S. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. (O‘zbekiston xalq ta’limi vazirligi talabalar uchun qo ‘llanma sifatida tavsiya etgan). - Toshkent: O‘qituvchi, 1992- 215 b.

(cc) BY

2. Kadagidze L. Different types of Listening Materials, IBSU International Refereed Multi-diciplinary Scientific Journal, №1, 2006, p 148-154.

3. Nunan D. (2002) “Listening in language Learning”. In “Methodology in Language Teaching” Eds. Jack C.Richards,Willy A.Renandya, Cambridge university press 2002, p.432.

4. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova N. Ona tili o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent: “Fan va texnologiya” , 2012. 380 b.

(cc) BY